

LIMON O'SIMLIGIDA ZARARKUNANDALARINING TUR TARKIBI BA UCHRASH DARAJASI

Tadiyeva Miyassar Ismailovna
ORCID 0000-0002-4661-4230
Alimova Zulfizar Anvar qizi, magistr
ORCID 0000-0003-1318-9124
Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Maqolada limon o'simligida 4 turkumga kiradigan 12 tur zararkunandalarni tashkil etishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: limon o'simligi, tur tarkibi, zarar, iqtisodiy zarar keltirish miqdori mezon.

Аннотация. В статье определено, растение лимона составляют 12 видов вредителей, относящихся к 4 отряда вредителей.

Ключевые слова: растение лимона, видовой состав, ущерб, количественный критерий причинения экономического ущерба.

Abstract. The article defines that the lemon plant is made up of 12 species of pests belonging to 4 orders of pests.

Keywords: lemon plant, species composition, damage, quantitative criterion for causing economic damage.

Kirish. Respublikamiz issiqxonarida so'nggi yillarda sitrus mevalarini yetkazish tobora kengayib bormoqda. Bularga asosan limon, apelsin, grayfrut, va mandarinlar kiradi. Sitrus daraxtlariga subtropik iqlimni talab qilgani uchun, mintaqamizda ular yarim yerto'la va issiqxonalarda o'stiriladi. Sitrus mevalarining tarkibida inson organizmiga kerakli bo'lgan mikroelementlar bo'lganligi sababli, ularga bo'lgan talablar tobora oshib bormoqda. Lekin, sitrus daraxtlari hosilini yetishtirish bizning iqlim-sharoitda ma'lum qiyinchiliklar mavjudligidan tashqari, ularni yilning barcha faslida har xil zararli organizmlar zararlanishi ham salbiy ta'sir qiladi [1].

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sitrus ekinlarni yetishtirib, ulardan yuqori hosil olish va aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish uchun sitrus ekinlarga zararkunanda va kasalliklari keltiradigan zararni kamaytirishdir. Lekin hozirgi vaqtgacha dunyoning ko'pgina mamlakatlarida jumladan O'zbekistonda ham sitrus ekinlarga zarar keltirib yashovchi ko'plab turdagi zararkunanda va kasalliklarni uchratish mumkin. Bular keltiradigan zarari esa bir necha millionlab dollarni tashkil etadi [3]. Shuning uchun ham sitrus ekinlar hosildorligini oshirishda ularni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish chora tadbirlariga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Material va uslublar. Limon ekinining zararkunandalarini va entomafaglarini hisobga olish ishlari G.M.Yaroslavsev (1930); B.P.Bryansev (1966); Ya.Vayzer (1972); B.P.Adashkevich va boshq. (1986); biologik samaradorlikni hisoblash metodologiyasi Xo'jaev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar (2004) [5] uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Toshkent viloyatining Qibray tumani ToshDAU qoshidagi "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahatlar markazi" DUK tajriba maydonlarida 2024 yilda sitrus ekinini zararkunandalari tur tarkibini aniqlash va sistematik tahlil qilish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Natijalari va munozara. 2024 yildagi tadqiqot natijalari bo'yicha Toshkent viloyatining xususiy issiqxonalarda sitrus daraxtlaridan asosan limon (kam miqdorda mandarin) ekilganligi kuzatildi. Ushbu ekilgan limon daraxtida o'rgimchakkana, issiqxona oqqanoti - *Trialeurodes vaporariorum* Westw., sirtus oqqanoti - *Dialeurodes citri* Ashmead, qizil tusli sitrus kana - *Paratetranychus citri* Mc.G, sitrus g'ovak hosil qiluvchi kuya

- *Phyllocnistis citrella* Stainton hamda akatsiya shirasi - *Aphis crassivora* Koch. va vergulsimon qalqondor - *Lepidosaphes beckii*, Kaliforniya qalqondori - *Diaspidiotus Comst.* hamda akatsiya soxta qalqondorlari - *Parthenolekanium corni* Bouche. tarqalganligi va zarar keltirayotganligi tasdiqlandi.

Respublikamizda ekilgan sitrus ekinlarida ko'plab zararkunanda hasharotlar uchrashi kuzatilib, biz ularga qisqacha ta'rif birib o'tishni lozim topdik. Bular quyidagilardan iborat:

1.Turkum Tangachaqqanotlilar *Lepidoptera*, oila - *Gracillariidae* ga kiruvchi sitrus g'ovak hosil qiluvchi kuya - *Phyllocnistis citrella* Stainton ko'p davlatlarda tashqi karantin bo'lib, hozirda O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida uchramoqda.

2.Turkum Pufakoyoqlilar (tripslar) - *Thysanoptera* - Oila *Thripidae* ga kiruvchi 1 tur issiqxona tripsi - *Heliethrips hacmorhoidalis* Bouche qisman zararlaydi.

3.Turkum Tengqanotlilar - *Homoptera*. *Aphididae* oilasiga mansub bo'lgan akatsiya shirasi-*Aphis crassivora* Koch. zararlashi aniqlandi. Qalqondorlar oilasi - *Diaspididae* ga mansub vergulsimon qalqondor - *Lepidosaphes beckii* va Kaliforniya qalqondor-*Diaspidiotus Comst.* hamda soxta qalqondorlar - *Coccidae* oilasiga kiruvchi akatsiya soxta qalqondorlari - *Parthenolekanium corni* Bouche., sitrus unsimon qurti - *Rseudococcidae* turlari limonda uchrab, vegetativ organlarini so'rib zarar keltiradi.

Teng qanotlilar (*Homoptera*) turkumining yana bir aleyrodid yoki oqqanotlar - *Aleyrodidae* oilasiga mansub bo'lgan 2 turi issiqxona oqqanoti - *Trialeurodes vaporariorum* Westw. Va sirtus oqqanoti - *Dialeurodes citri* Ashmead O'zbekiston sharoitida sitrus ekinlariga jiddiy zarar keltirishi aniqlandi.

4.Turkum Kanalar (*Asariphormes*) o'rgimchaksimonlar (*Arachnoidea*) sinfi O'rgimchakkanalar oilasi - *Tetranychidae* qizil tusli sitrus kana - *Paratetranychus citri* Mc.G va kumushsimon sitrus kana - *Phyllocoptes oleivorus* Ashm. turlari sitrus daraxtlarida uchraydi.

Xulosa. Ilmiy tadqiqotlar va olib borilgan kuzatuvlar xulosasiga ko'ra limon o'simligida 4 turkumga kiradigan 12 tur zararkunandalar tarqalganligi aniqlandi.

Sitrus daraxtlarini o'stirishda iqlim-sharoitda ma'lum qiyinchiliklar mavjudligidan tashqari, ularni yilning turli faslida turli zararli organizmlar tomonidan zararlanishi kuzatuvlarda tasdiqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Zoxidov F., Xo'jaev O., Madaratov B., Pardaev A. Sitrus oqqanoti // O'simliklar himoyasi va karantini. №1 (5) 2015 y. B. 29-31.
2. Mamatov K.Sh., Mambetnazarov A.B., Muranov A.A. Issiqxonada qizil tusli sitrus kanasiga qarshi qo'llanilgan kimyoviy preparatlarning samaradorligi, // O'simliklar himoyasi va karantin № 2 (6) 2015. 39 b.
3. Mamatov K.Sh., Mambetnazarov A.B., Muranov A.A. Limonning asosiy zararkunanda va kasalliklari // O'simliklar himoyasi va karantini. № 2 – 2016 g. B. 39-40.
4. Xo'jaev Sh.T. Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Toshkent. 2004 yil.